



MILLIY QADRIYATLARNING JAMIYATIMIZDA O'Z AHAMIYATI VA ZAMONAVIYLASHISH JARAYONLARI

Ro'zimatova Ruxsorabonu

Urganch tumani 2-sonli texnikumning tarix fani o'qituvchisi,

Ibragimov Zafar

Urganch tumani 2-sonli texnikumning chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi

KIRISH

Vatanparvarlik tushunchasi har bir jamiyat va xalq hayotida muhim ma'naviy-axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlardan biridir. U insonning o'z Vatani, millati, xalqining taqdiri va kelajagiga bo'lgan muhabbati, sadoqati hamda mas'uliyatini ifodalaydi. Bugungi kunda milliy ma'naviy hayotimizni rivojlantirishda vatanparvarlik ruhini mustahkamlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Vatanparvarlik milliy ma'naviy hayotimizning asosiy tayanchlaridan biri bo'lib, u asrlar davomida xalqimiz tafakkurida shakllanib kelgan. Ajdodlarimiz Vatan ozodligi, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona kurash olib borganlar. Ularning ibratli hayoti bugungi avlod uchun vatanparvarlikning yorqin namunasi bo'lib xizmat qiladi. Milliy ma'naviyat insonning ichki dunyosini boyituvchi omil bo'lsa, vatanparvarlik uning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Inson o'z tarixini, madaniyatini, urf-odat va an'analarini chuqur bilgan sari Vatanga bo'lgan muhabbati kuchayadi. Bu esa milliy o'zlikni anglash va ma'naviy yetuklikni ta'minlaydi. Yosh avlod tarbiyasida vatanparvarlik alohida ahamiyatga ega. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan yoshlar yurt kelajagi uchun mas'uliyatni his etadi, ilm olishga, mehnat qilishga va jamiyat rivojiga hissa qo'shishga intiladi. Bunday yoshlar nafaqat o'z manfaatini, balki jamiyat manfaatini ham ustun qo'yadi. Shuningdek, vatanparvarlik jamiyatda ijtimoiy birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi.

O'z Vatani sevgan inson qonunlarga hurmat bilan qaraydi, tinchlikni asrashga va milliy birlikni mustahkamlashga harakat qiladi. Bu esa jamiyatda barqarorlik va totuvlikni ta'minlaydi. Globallashtirish sharoitida vatanparvarlikning ahamiyati yanada ortmoqda.

Yangi O'zbekistonda erkin va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida keng ko'lamli va shiddatli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2017-2024-yillarda fuqarolik jamiyati institutlarini bevosita qo'llab-quvvatlash va samaradorligini oshirishga qaratilgan 64 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun zarur huquqiy va institutsional baza yaratildi.

Bu borada Prezidentimiz, jumladan: "Fuqarolik jamiyati institutlarining erkin faoliyat yuritishi, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish e'tiborimiz markazida bo'ladi" deb alohida e'tirof etdilar.



Yangi O'zbekiston va fuqarolik jamiyati: konstitutsiyaviy-huquqiy va tashkiliy asoslari Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida bir qator samarali aniq quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Birinchidan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida birinchi marotaba fuqarolik jamiyati institutlariga bag'ishlangan alohida bob kiritilib, uning XIII bobi "Fuqarolik jamiyati institutlari", deb nomlandi.

Jumladan 69-moddada "Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi" deb mustahkamlab qo'yildi.

Eng asosiysi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada milliy qonunchiligimizda birinchi marotaba fuqarolik jamiyati institutlarining tarkibi ochib berildi.

Ushbu institutlar fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi mustahkamlandi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining boshqa boblarning 5 ta moddasida fuqarolik jamiyati institutlarini manfaatlari himoya qilingan. Ikkinchidan, O'zbekiston tarixida ilk marotaba 2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiyaning asosiy ustuvor yo'nalishlari etib: fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish tamoyillari belgilandi.

Turli yot g'oyalar va mafkuraviy tahdidlar kuchaygan bir davrda milliy qadriyatlarni saqlab qolish, ma'naviy mustaqillikni ta'minlash vatanparvarlik bilan chambarchas bog'liqdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, vatanparvarlik tushunchasi milliy ma'naviy hayotimizning ajralmas qismi bo'lib, jamiyat taraqqiyoti, yoshlar tarbiyasi va davlat barqarorligida muhim o'rin tutadi.

Har bir inson o'z Vatanini sevishi, uni asrashi va ravnaqi uchun fidokorona mehnat qilishi lozim. Vatanparvarlik ruhini yuksaltirish milliy ma'naviyatimizning kelajak avlodlarga uzluksiz yetib borishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021 yildagi 23-son qarori.
2. Pedagogikaning nazariy asoslari: ma'ruzalar kursi / tahr. O. Vishnevskiy - Drogobych: Uyg'onish, 2001. – 268 b.
3. Kolesnikova E. Yu., Lubskiy A. V. Yoshlar muhitida vatanparvarlik va fuqarolik: sotsiologik tadqiqotlar paradigmaları // Gumanitar 2018. V. 7. 5-son. 174- 183 b.. DOI 10.23683/2227- 8656.2018.5.14
4. I.I.Axtamov. Boshlang'ich sinflarda musiqa o'qitishning interfaol metodlaridan foydalanish. Tafakkur manzili. 2024/5/22
5. Karalash N., 2012, 90-95-betlar



6. Ageev A., 1991, 24-32-betlar

7.<https://cyberleninka.ru/article/n/vatanparvarlik-tarbiyasi-tushunchasi-va-ahamiyati>